

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA HILM, SAXOVAT VA HIMMAT HAQIDA

Olimova Ruxshona Ravshan qizi

Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15614027>

Annotatsiya: Bu maqolada Alisher Navoiy asarlarida, xususan “Mahbub ul-qulub”da ilgari surilgan hilm (sabr va kechirimlilik), saxovat (yordam va qo'l ochiqlik) hamda himmat (jasorat va kuchli iroda) fazilatlari haqida 6-sinf o'quvchilari uchun sodda va tushunarli tahlil berilgan. Maqola yosh kitobxonlarga ushbu insoniy fazilatlarning hayotdagi o'рни va ahamiyatini anglatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar

Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, hilm, saxovat, himmat, 6-sinf, fazilat, sabr, kechirimlilik, yordam, jasorat.

Kirish

Salom, aziz o'quvchilar!

Bugun biz buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning “Mahbub ul-qulub” asaridan o'rganamiz. Bu asarda hilm, saxovat va himmat kabi insoniy fazilatlar haqida so'z yuritiladi. Keling, bu tushunchalarni birgalikda o'rganamiz!

Hilm degani – sabrli, muloyim va kechirimli bo'lish demak. Navoiy aytadiki, agar kimdir sizga yomonlik qilsa, siz unga yomonlik bilan javob bermang. Aksincha, sabr qiling, kechiring. Chunki sabrli odamlar doimo yutadi. "Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U – yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqarning behuda harakatidan himoya qiluvchi", - deydi Navoiy bobomiz.

Keling o'quvchilar bu jumlagam e'tibor qaratamiz: Chuchuk til achchiqqa aylansa, ko'pchilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odamhalvofurush kabi sevimlidir. Demak o'quvchilar, korib turganimizdek biz ham chiroyli, muloyim so'zli bo'lishimiz kerak ekan.

Misol: Agar sinfdoshimiz bizga qattiq gapirsa, biz unga muloyimlik bilan javob bersak, u xatosini tushunadi va do'stligimiz mustahkamlanadi.

Saxovat – boshqalarga yordam berish, qo'l ochiqlik degani. Navoiy saxovatli bo'lishni juda qadrlaydi. U aytadi: “Ovqatim uvol bo'lmasin desang – yedir, libosim eskirmasin desang – kiydir.” Ya'ni, agar ovqatingiz barakali bo'lishini istasangiz, boshqalar bilan bo'lishing; kiyimingiz eskirmasligini istasangiz, uni boshqalarga bering. Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkning mavj urib turgan dengizidir, balki u to'lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi.

Misol: Agar bizda ortiqcha daftar bo'lsa, uni daftari yo'q do'stimizga bersak, bu saxovat bo'ladi.

Himmat – bu jasorat, kuchli iroda va boshqalarga foydali bo'lish istagi. Navoiy himmatli odamlarni ulug'laydi. U aytadi: “Himmatli bo'l, boshqalarga yordam ber, yaxshi ishlar qil.” Himmatli odamlar hech qachon dangasa bo'lmaydi, doimo harakatda bo'ladi.

Misol: Agar sinfimizda kimdir qiyinchilikka duch kelsa, biz unga yordam bersak, bu bizning himmatimizni ko'rsatadi.

Xulosa

Alisher Navoiy bizga o'z asarlari orqali shunday deydi: “Sabrli bo’ling (hilm), boshqalarga yordam bering (saxovat), jasur va foydali ishlar qiling (himmat).” Agar biz bu fazilatlarini o’zimizda rivojlantirsak, yaxshi insonlar bo’lamiz.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2017.
2. 6-sinf “Adabiyot” darsligi. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2017.
3. Navoiy asarlari tahliliga bag’ishlangan uslubiy qo’llanmalar.